

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Бош муҳаррир:

Пардаев А.Ҳ. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

Масъул котиблар:

Саидов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хўжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Таҳририят аъзолари:

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Аҳмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Ҳ. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Ғойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярмагов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Саидқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомиллов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Саидов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Ғофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

Тарих ва Жамият илмий журнали
INSONIYAT MADANIY TARAQQIYOTDA TEATR SAN'ATINING
IJTIMOIIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li - JDPI o'qituvchisi
mansur.nabiyev@bk.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada insoniyatning tarxii taraqqiyotida teatr san'atining ahamiyati, teatrning paydo bo'lish tarixi, teatrning rivojlanishiga sabab bo'luvchi insonlar va ularning faoliyati, teatr san'atining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi va uning sabablari, Turkiston hududida sahnalashtirilgan sahna asarlari, bugungi teatr san'atimizning rivoji haqidagi ma'lumotlar fikrlar dalillar asosida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Insoniyatning madaniy taraqqiyoti, antik teatr, Qadimgi Yunoniston, Esxil, Sofokl, Evripid, Aristofan, Rimlik Plavt, Seneka, sahnaviy shakllar, badiiy obrazlar, antik dunyo, badiiy ijod, tragediya, komediya janri, xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr san'atining beqiyos ulushi va ahamiyati.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль театрального искусства в историческом развитии человечества, история театра, народы и их деятельность, приведшая к развитию театра, проникновение театрального искусства в Среднюю Азию и его причины, сценические постановки в Туркестане, сегодняшняя театральная информация о развитии нашего искусства основана на мнениях и доказательствах.

Ключевые слова: Культурное развитие человечества, античный театр, Древняя Греция, Эсхил, Софокл, Еврипид, Аристофан, римлянин Плавт, Сенека, театральные формы, художественные образы, античный мир, художественное творчество, трагедия, жанр комедии, неопределимый вклад театрального искусства в развитие народной культуры и значение.

Annotation: This article discusses the role of theatrical art in the historical development of mankind, the history of the theater, the people and their activities that led to the development of theater, the penetration of theatrical art in Central Asia and its causes, stage productions in Turkestan, today's theater information about the development of our art is based on opinions and evidence.

Key words: The cultural development of mankind, ancient theater, Ancient Greece, Aeschylus, Sophocles, Euripides, Aristophanes, Roman Plautus, Seneca, theatrical forms, artistic images, the ancient world, artistic creation, tragedy, comedy genre, the invaluable contribution of theatrical art in the development of folk culture and importance.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Teatr (yun. - tomoshagoh) san'at turi, uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pesadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktning yoritilishida muhim o'rin tutadi.

Teatr san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhtariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. av. V-asrdayoq teatr jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Hindistonda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bog'liq holda rivojlangan.

Esxil (mil. av. 525. Afina yaqinidagi Elevsin sh. - 456, Sitsiliya) - yunon dramaturgi, "tragediyaning otasi". Uning 80 dramasi "Eroniylar" (472), "Fivaga qarshi yettovlon" (467), "Oresteya" (458), "Iltijogo'ylar" hamda "Zanjirband Prometey" bizgacha yetib kelgan. Boshqa tragediyalaridan faqat parchalar ma'lum. "Baliqchilar", "Elchilar yoki istminliklar" satirik dramalarining parchalari Misr papirus qog'ozlarida saqlangan.

Esxil Afina demokratiyasi avj olgan davrda yashagan va bu sharoit uning ijodiga ham ta'sir etgan. Tragediyaga 2-aktyorni kiritib, uni chinakam dramatik janrga aylantirgan va dialog konfliktning yuzaga kelishiga imkon yaratgan. Esxil tragediyalari monumental, kompozitsiyasi mutanosib; ularda xor yetakchi o'rinda, personajlar tavsifnomasi ziddiyatlardan holi va qat'iy maqsadga qaratilgan.

Esxil tragediyalarida insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ijtimoiy va axloqiy mavzular yorilgan. loqiy muammolarni ko'tarib chiqqan. Prometey haqidagi trilogiyasidan faqat "Zanjirband Prometey" tragediyasi saqlangan. Prometey timsolida zulmga qarshi, adolat uchun kurashuvchi inson obrazini yaratgan. "Oresteya" trilogiyasi ("Agamemnon", "Xoeforlar", "Evmenidlar")da qabila-urug'chilik hayotidan saqlanib qolgan ba'zi zararli urf-odatlar qoralangan.

Sofokl (taxm. mil. av. 496-406) - yunon dramaturgi, shoir, siyosiy va harbiy arbob. Antik manbalarga ko'ra, 123 drama yozgan, shulardan 7 tasi ("Ayaks", 442 yildan oldinroq; "Antigona", taxminan 441; "Traxinalik ayollar", yozilgan vaqti

Тарих ва Жамият илмий журнали

noma'lum; "Shoh Edip" va "Elektra", 430-445 yillar orasida; "Filoktet", 409 yil; "Edip Kolon-Sofiya ibodatxonasi", 401 yil) va ayrim dramalaridan parchalar, ba'zi lirik she'rlari yetib kelgan.

Sofokl o'tmishdoshi Esxil va izdoshi Yevripiddan farqli o'laroq, voqelikni qanday bo'lsa, shunday qabul qilib, Yunonistonning gullagan davridagi demokratiya asoslariga shubha bilan qaramagan. Sofokl antik davr tragediyalari uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan shaxsning ma'naviy shakllanishi muammosini yechishda dunyoning Parvardigor tomonidan idora etilishini nazardan qochirmagan. Uning "Traxinalik ayollar" tragediyasidan boshqa barcha asarlari olijanob kishilarning nomlari bilan atalgan va bu asarlarning qahramonlari murakkab vaziyatda do'q va po'pisalarga yoxud murosasozlikka da'vat etuvchi kengash va maslahatlarga qaramay, o'z maqsadlari sari intiladilar. Antigona "norasmiy qonun"ga itoat etib, davlat qonunini buzadi va akasidan judo bo'ladi; Elektra qatl etilgan otasining o'chini olaman, deb o'zini-o'zi azob-uqubatlarga giriftor etadi; Edip, taqdiri azaldan qanchalik qochishga urinmasin, otasining qotili va onasining eri bo'lib chiqadi. Ana shu tarzda Sofokl tragediyalarining qahramonlari, o'z istaklariga qarshi o'laroq, taqdiri azalning qurboni sifatida gavgaldanadilar. Sofokl voqeaning tabiiy oqimini aks ettirar ekan, tasvirga ilohiy kuchlarni jalb etmaydi, tomoshabin uning asarlarida kamdan-kam holdagina folbin, bashoratchilarga duch keladi.

Sofokl Esxildan farqli o'laroq, tragediyaning trilogiya ko'rinishlaridan voz kechib, har bir asarida syujetning mustaqilligiga erishadi. Uning ikkinchi yangiligi 3 aktyor ishtirokidagi sahnalardan samarali foydalanishidir. Sofokl jahon adabiyoti tarixidan bir necha monumental obrazlarni yaratgan ijodkor va jiddiy dramatik kompozitsiyalar ustasi sifatida o'rin egallagan. Sofokl asarlari teatr san'ati yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarilgan hozir davrda ham o'z qimmatini yo'qotmay, jahon dramaturgiyasini shoh namunalari bo'lib qolmoqda. Sofoklning "Shoh Edip" (1969), "Antigona" asarlari hozirgi O'zbek milliy teatri (1971), "Elektra" tragediyasi esa Abror Hidoyatov nomidagi teatrdan sahnalashtirilgan.

Professional teatr XVI-asrdan opera, XVIII-asr o'rtalaridan balet, XIX-asr o'rtalaridan opere mustaqil tetar turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bog'liq. XVIII-asrda ma'rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta-sekin realistik tendensiya kuchaydi. XVIII-asrning oxirlariga kelib, drama, melodrama, satirik yo'nalishning yuzaga kelishi teatrn g'oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylantirdi.

XIX-asrning birinchi yarmida vujudga kelgan romantik yo'nalish teatrdan gumanistik ideallar va ko'p hollarda xayoliy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada taqlidgo'ylikdan iborat klassitsizmga qarshi, o'ziga xos milliylik, xalqchilik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloq yoydi. XIX-asr oxirlaridan teatrn isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy

Тарих ва Жамият илмий журнали

adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (A.Chexov, G.Ibsen, B.Shou va b.) bilan yaqinlashdi. XVIII-asr oxirlarida XX-asr boshlarida teatrda, aktyorlik san'atida yangi ta'lim uslubi Stanislavskiy sistemasini qo'llash boshlandi.

Jadidchilik harakati tarixan qisqa muddatda ijtimoiy ongni matrifatchilikdan siyosiy ozodlik, mustaqil davlatchilik g'oyasi tomon rivojlantira oldi. Bu harakat bir necha yo'nalishdagi amaliy faoliyatda o'z ifodasini topdi. Xususan[1,120-121],

- maktab-maorif,
- matbuot va matbachilik,
- xayriya ishlari,
- adabiyot va san'at, shu jumladan,
- teatr va dramaturgiya kabilarda.

Teatr jadid ziyolilari ta'biricha "ibratxona", "ulug'lar maktabi" edi. Muqallid - aktyorlar esa "tabibi hoziq" misolida edilar. Mazkur tushuncha jadid teatrining ham g'oyaviy, ham estetik tamoyillarini belgiladi. Ayni chog'da teatr ma'naviy tarbiya maskani bo'lishi bilan bir qatorda, maktab-maorif sohalarini moddiy quvvatlab turuvchi asosiy manbalardan ham edi. Ana shu bois taraqqiyparvarlar milliy teatr ishlarini zo'r berib rivojlantirishga intildilar. 10-yillarning o'rtalariga kelib Turkistonning deyarli barcha yirik shaharlarida havaskorlar milliy truppalari tashkil topa boshladi. Avval Toshkent, Samarqand, so'ngroq Qo'qon, Namangan, Andijon, Buxoro, Xo'jand, Kattaqo'rg'on shaharlarida teatr jamoalarining vujudga kelishi milliy dramaturgiyaga bo'lgan ehtiyojni ham favqulodda kuchaytirib yubordi va shuning hosilasi o'laroq o'nlab sahna asarlari paydo bo'ldi. Bu ishlarning tamal toshini qo'ygan zot esa Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

XX asrning 10-yillarida maydonga kelgan o'zbek milliy yozma dramaturgiyasi o'zining tug'ilish-shakllanish va taraqqiyot tarixiga ega. Bu tarixni esa davrlarda kechgan ijtimoiy voqelik tarixidan alohida ajratib o'rganish mumkin emas.

Demak jadid dramaturgiyasining shakllanish va rivojlanish jarayonlari ijtimoiy-tarixiy voqelik bilan bir xil tadrij kasb etadi. Shunga ko'ra yozma dramaturgiyamizning birinchi namunasi yaratilgan 1911 yildan to 1929 yilgacha bo'lgan davrni o'zbek jadid dramaturgiyasining tug'ilishi va taraqqiyot davri[2,142-147] deb atash ham tarixiy, ham adabiy-estetik reallikka muvofiqdir. Ana shu mulohazalar hamda dramaturgiyadek yirik adabiy turning o'ziga xos janroviiy ko'rinishlari, takomili, mavzular doirasining o'sib, kengayib borishi, g'oyaviy-estetik o'zgarishlari, boyishi kabi jihatlariga ko'ra, uni uch asosiy davrga ajratish lozim.

Birinchi davr tom ma'nodagi tug'ilish va shakllanish davri bo'lib, 1911-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrning dastlabki ham eng muhim yutug'i Mahmudxo'ja Behbudiyning 1911 yilda yozgan "Padarkush" asari bo'ldi. Mazkur pesani jadidchilik harakatining ham antifeodal, ham antikolonial intilish va

Тарих ва Жамият илмий журнали

maqsadlari o'z tajassumini topgan ma'rifiy-siyosiy hodisa sifatida talqin qilish to'g'ri bo'ladi. Yozilish sanasi va davr dujjatlari guvohlik berishicha, "Padarkush" dan keyin yaratilgan keyingi milliy pesa Nusratulla Quadratulla va Hoji Mu'inning hamkorlikda yaratgan "To'y" asaridir. Bema'ni urf-odat hamda olamga dovruq solib nom chiqarish "kasali"ga muhtalo bo'lgan bir boyning qilmish-qidirmishidan hikoya qiluvchi asar edi.

Ikkinchi davr 1917-1924 yillar oralig'idagi taraqqiyot bosqichi bu davrda dramaturgiya umum o'zbek adabiyotining yetakchi janri bo'lib qoldi. Shu paytlarda dramaturgiyamizning eng sara namunalari maydonga kelda Teatrshunos Sirojiddin Ahmedovning guvohlik berishicha, bu davrda Toshkent shahrining o'zida 62 ta teatr jamoasi sahnada faoliyat yuritgan. Shundan 43 tasi o'zbek jamoalari bo'lib, qolganlari rus, ozarbayjon, tatar, qrimtatar, yahudiy, qozoq, arman va hokazo millat vakillarining teatr truppalari.

1917-1924 yillar oralig'ida turli janrdagi 185-asar sahnalashtirilganligi aniqlandi. Shu davrda o'ttizdan ortiq ijodkorlar dramaturgiya sohasida faol qalam tebratdilar. Ikkinchi davr dramaturgiyasida ham jadidchilik harakatining shu pallada ilgari surilgan barcha intilish va istaklari, qarash ham g'oyalari o'z aksini topdi. Yuqorida zikr etilgan pesalarni ijtimoiy-g'oya yo'nalishi, tematikasi nuqtai nazaridan tasniflasak uchta mavzu bo'rtib ko'rinadi:

1. Maishiy mavzular (Hamza, Xurshid, G'ulom Zafariy, Bahrom Haydariy).
2. Millatning tarixiy kechmishi (Fitrat, Cho'lpon, G'ozil Yunus, Mannon Ramziy).
3. Istibdodga karshi kurash. Hurriyat mavzulari (Fitrat, Avloniy).

Uchinchi davr 1925-1929 yillarni va hatto ayt mumkinki, muayyan darajada undan keyingi yillar ham qisman o'z ichiga oladi. Bu davrda ham dramaturg jadid adabiyotining takomilida o'ziga xos o'rin tutdi. Fitratning "Arslon", "Vose' qo'zg'oloni", Cho'lponning "Yana uylanaman", "Zamona xotuni", "Mushtumzo'r", "Cho'rining isyoni", "O'rtoq Qarshiboev", "Hujum", G'ozil Yunusning "Millatparastlar", Xurshidning "Layli Majnun", "Farhod va Shirin", Hamza Hakimzodaning "Burungi saylovlar", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari" kabi o'nlab pesalar yaratildi. Avvalgi erk, hurriyat g'oyasi ehtiros bilan jaranglagan monologlar, istibdodning sabab va natijalaridan bahs ochgan dialoglar o'rni fikriy tushkunlik, umidsizlik kayfiyati egallay boshladi.

Abdulla Avloniy rahbarligida "Turon" taetrning 1915 yil O'zbekiston shaharlariga qilgan ijodiy safarining ahamiyati katta bo'ldi. 1916 yil Hamza Qo'qonda teatr tuzdi. Birin-ketin Andijon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922)da teatrlar tashkil qilindi. 1918 yildan Mannon Uyg'ur "Turon" teatri (hoz. O'zbek milliy akademik drama teatri)ga rahbarlik qilib, uning professional teatrga aylanishida, repertuarini tuzish, ijro uslubini yaratishda muhim rol o'ynadi.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Teatrning birinchi bo'g'in aktyor va rejisyorlari 1924-1927 yillar Moskvada O'zbek Maorif uyi qoshida ochilgan dramstudiyada tahsil olishgan. 20-yillar so'ngida Rus yosh tomoshabinlar tatri (1928), O'zbek yosh tomoshabinlar tatri (1929) tashkil topdi. Keyinroq Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1935) viloyati teatrlari, o'nlab tuman va shaxar tatlari yuzaga keldi. Toshkent va Samarqandda Davlat rus drama teatri (1934, 1938). Respublika qo'g'irchoq teatri (1939). Navoiy nomidagi davlat opera va balet teatri (1939) o'z faoliyatini boshladi, shu yili Davlat komediya teatri tashkil bo'ldi va u bir yil o'tib Muqimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi.

O'zbekiston viloyat teatrlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi - Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali-drama teatri.

Andijon - Zahriddin Muhammad Bobur nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Buxoro - Sadridin Ayniy nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Jizzax – Yunus Rajabiy nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Navoiy – Farxod nomli madaniyat saroyi-1982.

Namangan – Alisher Navoiy nomidagi viloyat musiqali-drama teatri-1931.

Samarqand – Hamid olimjon nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Sirdaryo – Olim Xo'jaev nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Surxandaryo – Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat musiqali-drama teatri-1935.

Farg'ona – Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Xorazm - Ogahiy nomidagi viloyat musiqali-drama teatri.

Qashqadaryo – Mulla To'ychi Toshmammedov nomidagi viloyat musiqali-drama teatri-1932.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadid dramaturgiyasi qariyb yigirma yillik davrda tug'ilish-shakllanish, taraqqiyot va tanazzul bosqichlarini o'tdi. Uning o'ziga xos ijobiy, ibrat bo'larlik jihatlari bilan birga muayyan o'zliklari ham bor. Ammo shuni yodda tutish joizki, Fitrat, Hamza, Cho'lpon va Hoji Mu'in, G'ulom Zafariy kabi ijodkorlar misolida jadid dramaturgiyasi jiddiy taraqqiyot va takomilga erishdi. G'oya va fikr erkinligi, ijodiy muhit imkoni bo'lganida, u yanada yuksakroq badiiy darajalarga ko'tarilishi mumkin edi. Afsuski, tezlashtirilgan tarixiy jarayonlar har qanday taraqqiyot kabi, jadidlar sahna adabiyotini ham tabiiy o'zanidan chiqarib yubordi. Biroq bundan qat'i nazar, o'zbek jadid dramaturgiyasi XX asr umum o'zbek dramaturgiyasining eng mumtoz davri bo'lib qoldi.

ADABIYOTLAR

1. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati. –T.: Ma'naviyat, 2000. 120-121 betlar.

Тарих ва Жамият илмий журнали

2. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati. –Т.: Ma'naviyat, 2000. 142-147 betlar.
3. Nabiyev, M. (2020). “YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARINING VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI VA IJTIMOIIY ZARURATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Набиев, М. (2021). GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIIY-MA'NAVIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN MAFKURAVIY TARBIYANING AHAMIYATI. Научно-просветительский журнал "Наставник", (2).
5. Nabiyev, M. (2021). YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH” ASARIDA OMMAVIY MADANIYAT VA MA'NAVIY TAHDIDLARDAN YOSHLARNI HIMOYA QILISHNING MEKANIZMLARI TAHLILI. Scienceweb Ilmiy Nashrlar Portali.